XALQ DEPUTATLARI PAXTACHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-99-156-7-102-K/23 Paxtachi tumani hokimligi

Paxtachi tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi hamda Samarqand viloyati xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli Qaroriga muvofiq, 2024-yil uchun Paxtachi tumani mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi oltinchi chaqiriq to‘qson to‘qqizinchi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Samarqand viloyati xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli Qaroriga asosan:

- tuman budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert **91 815 251,0 ming so‘m**, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar **25 884 000,0 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi;

- tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i **1 249 000,0 ming so‘m** miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **1 761 313,0 ming** so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov):

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin;

- soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

- tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Kenjayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Arnaqulov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Xamdamov**

Xalq deputatlari Paxtachi tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-156-7-102-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Paxtachi tumani mahalliy budjet daromadlari asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**106 031 000**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 896 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	27 050 000
3	Aksiz solig‘i, jami	16 480 000
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*16 480 000*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 500 000
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	15 060 000
6	Aylanmadan olinadigan soliq	6 450 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 974 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 960 000
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 620 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 011 000
11	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3 500 000

12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	30 000
13	Yig‘imlar	500 000

Xalq deputatlari Paxtachi tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-99-156-7-102-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Paxtachi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**197 846 251**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	29 444 782
2	Tibbiyot birlashmasi	82 260 762
3	Madaniyat bo‘limi	9 656 693
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	11 069 855
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 476 250
6	Irrigatsiya bo‘limi	1 555 000
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 555 971
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 349 891
9	Soliq inspeksiyasi	4 687 388
10	Tuman hokimligi	49 789 659